XALQ DEPUTATLARI YANGIYER SHAHAR KENGASHI

Q A R O R I

121000, Yangiyer shahar Yangi asr ko'chasi, telefon: 350-10-76

2022 - yil 30 - dekabr VI-66-213-9-132-K/22 Yangiyer shahar hokimligi

2023 yilgi Yangier shahar mahalliy byudjetitasdiqlash va mahalliy byudjetning daromadlari va xarajatlarining prognoz ko'rsatgichlarini belgilash to'g'risida

Byudjet Kodeksining 99-moddasiga, "2023 yil uchun O'zbekiston Respublikasining Davlat byudjeti to'g'risida"gi Qonunga muvofiq, O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining 2022 yil 29 dekabrdagi 01/20-32/1024-sonli xatini inobatga olib hamda O'zbekiston Respublikasi Hisob palatasining 2022 yil 24 oktyabrdagi (02-959) Sirdaryo viloyati mahalliy byudjetining 2023 yil uchun shakllantirilgan loyihasi bo'yicha xulosasini muhokama qilgan holda 2023 yilgi shahar mahalliy byudjetini tasdiqlash hamda mahalliy byudjetning daromadlari va xarajatlarining prognoz ko'rsatgichlarini belgilash maqsadida, Sirdaryo viloyati moliya bosh boshqarmasining 2022 yil 30 dekabrdagi 01/01-38/68-soni va Yangiyer shahar hokimligining Moliya bo'limining 2022 yil 19-dekabrdagi 09/01-38/10-sonli xatini inobatga olib, O'zbekiston Respublikasi "Mahalliy davlat hokimiyati to'g'risida"gi Qonunining 6- va 24-moddalariga asosan, Xalq deputatlari Yangier shahar Kengashi **qaror qiladi:**

1. Sirdaryo viloyati Yangier shahri mahalliy byudjetining 2023 yil uchun daromadlari 26 963 671,0 ming so'm, xarajatlari 58 431 171,0 ming so'm miqdorida tasdiqlanganligi ma'lumot uchun qabul qilinsin.

2. 2023 yil uchun Yangier shahrimahalliy byudjeti daromadlari prognozi 1-ilovaga muvofiq ma'lumot uchun qabul qilinsin.

3. 2023 yil uchun Yangier shahrimaxalliy byudjetining daromadlari va xarajatlari prognozlari 2-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

4. 2023 yil uchun Yangier shahribyudjetidan hududiy byudjet mablag'larini taqsimlovchilarga ajratiladigan mablag'larning cheklangan miqdorlari 3-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

5. 2023 yil uchun Yangier shahrimahalliy byudjetiga ajratiladigan tartibga soluvchi byudjetlararo transfertlar miqdori 4-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

6. 2023 yil uchun mol-mulkni ijaraga beruvchi jismoniy shaxslar uchun belgilangan ijara to'lovining eng kam stavkalari 5-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

7. 2023 yil uchun tovarlarning ayrim turlari bilan chakana savdo qilish huquqi uchun undiriladigan yig‘imlarning cheklangan stavkalari 6-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

8. 2023 yil uchun avtotransport yig‘imlarinnng stavkalari 7-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

9. 2023 yil uchun Yangier shahrimahalliy byudjetiga umumdavlat soliqlaridan ajratmalar me’yorlari 8-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

10. Qishloq xo‘jaligi uchun mo‘ljallanmagan yerlar uchun yuridik shaxslar bo‘yicha 1 gektar uchun mutloq miqdorda belgilangan bazaviy soliq stavkasiga kiritilayotgan kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsientlar 9-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

11. Jismoniy shaxslar bo‘yicha (dehqon xo‘jaligini yuritish uchun berilgan qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallangan yerlardan tashqari) mutloq miqdorda 1 kv.m. uchun belgilangan bazaviy soliq stavkalariga nisbatan kiritilayotgan kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsientlari 10-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

12. 2023 yil uchun Yangier shahri byudjeti zaxira jamg‘armasi hajmlari 514 401,0 ming so‘m miqdorida belgilansin.

13. 2023 yil uchun Yangier shahribyudjeti shaxsiy g‘azna hisobvaraqlarida turgan byudjet mablag‘larining yo‘l qo‘yiladigan eng kam miqdori 426931,0 ming so‘mga belgilansin.

14. O‘zbekiston Respublikasining mazkur Qonuni bilan 2023 yilda xalq deputatlari Kengashlarini mahalliy byudjetlarni boshqarishda, xususan mahalliy byudjet xarajatlarini hududiy byudjet mablag‘lari taqsimlovchilar kesimida tasdiqlash va ularning Kengash oldidagi hisobdorligini belgilash bo‘yicha vakolatlari kengaytirilganligi inobatga olinsin.

Shuningdek, 2023 yilda quyidagi soliq turlari:

a) mahalliy byudjetiga to‘liq hajmda o‘tkaziladi:

jismoniy shaxslardan olinadigan mol-mulk solig‘i;

jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig‘i;

jismoniy shaxslarga tegishli mol-mulkni ijaraga berishdan oladigan yillik daromadi to‘g‘risidagi deklaratsiyaga asosan to‘laydigan, shuningdek yakka tartibdagi tadbirkorlar to‘laydigan jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i;

suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq, bundan elektr stansiyalari tomonidan to‘lanadigan soliq mustasno;

qurilish materiallari bo‘yicha yer qa’ridan foydalanganlik uchun soliq;

yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq;

yuridik shaxslar yer solig‘i;

korxonalar aylanmasidan soliq;

ayrim turdagi tovarlarning chakana savdosiga doir huquq uchun yig‘imlar;

qonunchilikda belgilangan miqdorlarda O‘zbekiston Respublikasining Davlat byudjetiga undiriladigan boshqa yig‘imlar (bojxona organlari tomonidan undiriladigan yig‘imlardan, g‘ildirakli transport vositalari, o‘ziyurar mashinalar va ularning tirkamalari uchun undiriladigan utilizatsiya yig‘imidan, shuningdek avtotransport vositalari oynalarining tusini o‘zgartirishga (qoraytirishga) ruxsatnoma berish uchun to‘lovdan tashqari);

davlat aktivlarini ijaraga berishdan olingan daromadlar.

b) viloyatning viloyat mahalliy byudjetiga to‘liq hajmda o‘tkaziladi:

yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig‘i;

elektr stansiyalari tomonidan to‘lanadigan suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq;

qonunchilikda belgilangan miqdorlardagi davlat bojlari (patent bojlaridan va litsenziyalar berganlik uchun davlat bojlaridan tashqari);

qonunchilikda belgilangan miqdorlarda O‘zbekiston Respublikasining Davlat byudjetiga undiriladigan jarimalar;

qonunchilikda belgilangan miqdorlarda davlat daromadiga o‘tkazilgan mol-mulkni realizatsiya qilishdan tushgan tushumlar, mahalliy davlat hokimiyati organlarining ulushi bo‘yicha dividendlar (daromadlar) va ajratmalar;

Davlat mulkini xususiylashtirishdan tushumlar;

mobil aloqa xizmatlari, tamaki va alkogol mahsulotlari, shu jumladan pivo uchun aksiz solig‘i bo‘yicha, tabiiy gaz uchun qat’iy belgilangan stavkadagi aksiz solig‘i, neft mahsulotlari uchun aksiz solig‘ini (benzin, dizel, suyultirilgan gaz, motor moyi) tushumlar tegishincha 2022 yilning 1 iyul holatiga ko‘ra Sirdaryo viloyati aholisi sonining respublika aholisi sonidagi ulushiga muvofiq.

v) viloyat byudjeti hamda mahalliy byudjetlari o‘rtasida taqsimlanadi:

jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i.

15. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Jamoatchilik fikri asosida shakllantiriladigan loyihalarni moliyalashtirish ko‘lamini kengaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2022 yil 25 oktyabrdagi PQ-409-son qaroriga asosan 2023 moliya yilidan boshlab:

a) “Obod qishloq” va “Obod mahalla” dasturlari doirasida moliyalashtiriladigan tadbirlar jamoatchilik fikri asosida “Ochiq byudjet” axborot portali orqali ovoz berish yo‘li bilan aniqlanadi.

Bunda, aholi tomonidan amalga oshirilishi taklif etilayotgan tadbirlar har bir mahalla bo‘yicha bitta loyihalar paketi shaklida ovozga qo‘yilishi;

b) Qoraqalpog‘iston Respublikasi respublika byudjeti, viloyatlarning viloyat byudjetlari va Toshkent shahrining shahar byudjetida shakllangan qo‘shimcha mablag‘larning 30 foizi

tuman (shahar)larda jamoatchilik fikri asosida shakllantirilgan tadbirlarni moliyalashtirish uchun tuman (shahar)lar Fuqarolar tashabbusi jamg‘armalariga mavjud aholi soni va mahallalar sonidan kelib chiqib, teng ulushlarda yo‘naltirilishi;

v) tashabbusli byudjetlashtirish jarayonlari uchun tuman (shahar) byudjetlarining 5 foizi miqdorida, biroq kamida 6.5 milliard so‘m mablag‘ rejalashtirilishi belgilanganligi;

g) “Obod qishloq” va “Obod mahalla” dasturlarini jamoatchilik fikri asosida tashabbusli byudjetlashtirish jarayonlari orqali amalga oshirilishining yangi tartibi ishlab chiqilishi ma’lumot uchun qabul qilinsin.

16. Yangier shahri hokimining birinchi o‘rinbosari (I.Nurmatov), Moliya bo‘limi mudiri (Sh.Xudoyberdiev), Davlat soliq inspeksiyasi (A.Bekmatov) va mas’ul tashkilotlar bilan birgalikda:

tegishli byudjetlarni birinchi navbatda ish haqi va unga tenglashtirilgan to‘lovlar, oziq-ovqat va dori-darmon va kommunal xizmatlar xarajatlarining rejalashtirilishini nazarda tutgan holda shakllantirish;

mahalliy byudjeti prognoz ko‘rsatkichlarni o‘z vaqtida va samarali bajarish;.

byudjet mablag‘laridan maqsadli va samarali foydalanish;

byudjet intizomiga rioya etilishi ustidan nazorat va mas’uliyatni yanada kuchaytirish;

tegishli mahalliy byudjetlarga soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlarning to‘liq tushumini ta’minlash;

byudjet daromadlar bazasini oshirish va qo‘shimcha rezervlarni aniqlash zarurligiga alohida e’tibor qaratsin.

17. Yangier shahri Davlat soliq inspeksiyasi (A.Bekmatov) O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksida belgilangan vakolatlaridan kelib chiqib:

soliqlarning to‘liq va to‘g‘ri hisoblanishini hamda ushbu soliqlarni o‘z vaqtida byudjetga undirilishi ustidan soliq nazoratini kuchaytirish;

yer solig‘i, suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq va mol-mulk soliqlari bo‘yicha doimiy tahlililar o‘tkazgan holda, soliqlarni to‘liq hisoblanishini ta’minlash hamda ushbu soliq to‘lovlari bo‘yicha soliq qarzdorligiga yo‘l qo‘ymaslik choralarini ko‘rish;

aylanmadan soliq turi bo‘yicha soliq to‘lovchilar tomonidan naqd pul aylanmalarining soliq hisobotlarida to‘liq aks ettirilishi ustidan doimiy soliq nazoratini o‘rnatish hamda zarur hollarda xronometraj va kameral soliq nazorati tadbirlarini o‘tkazish;

Bunda, mazkur yo‘nalishda jamoatchilik nazoratini kuchaytirish maqsadida fuqarolarga xarid chekini talab qilib olishni targ‘ib etuvchi ijtimoiy roliklar hamda video materiallar tayyorlab, ijtimoiy tarmoqlar va ommaviy axborot vositalarida keng targ‘ibot-tashviqot ishlarini olib borishga alohida e’tibor qaratsinlar.

xatlov ishlarini samarali tashkil etish orqali yer va mol-mulk solig‘ining soliq bazasini oshirish vazifasi yuklatilsin.

18. Yangier shahrihokimining birinchi o‘rinbosari (I.Nurmatov), Moliya bo‘limi (Sh. Xudoyberdiev):

Yangier shahar byudjeti tasdiqlangan xarajatlarining (zaxira jamg‘armasi mablag‘larisiz) 5 foiziga teng miqdordagi mablag‘lar jamoatchilik fikri asosida shakllantirilgan tadbirlarni moliyalashtirishga hamda mahalliy byudjetlarda shakllangan qo‘shimcha manbalarning kamida 30 foizini jamoatchilik fikri asosida shakllantiriladigan tadbirlarni moliyalashtirish uchun “Fuqarolar tashabbusi jamg‘armasi”ga yo‘naltirsin.

Bunda, Yangier shahri xalq deputatlari, Yoshlar ishlar agentligi shahar bo‘limi, shahar hokimligi huzuridagi Jamoatchilik kengashlari hamda yangi joriy etilgan hokim yordamchilari byudjet jarayonida fuqarolarning faol ishtirokini ta’minlash maqsadida aholiga keng targ‘ibot-tashviqot ishlarini olib borishga masul etib belgilansin;

mahalliy byudjetlarning qo‘shimcha manbalari hisobidan xarid qilingan tovarlar va xizmatlar, qurilish, rekonstruksiya qilish va ta’mirlash ishlari olib borilayotgan ob’ektlar ro‘yxati, shuningdek qurilish-ta’mirlash ishlarining moliyalashtirilishi to‘g‘risidagi ma’lumotlar har chorak yakunlariga ko‘ra, keyingi chorak birinchi oyining 10 sanasiga qadar majburiy tartibda tegishli hokimlik rasmiy veb-saytlariga joylashtirib borilsin.

19. Mazkur qaror “Yangiyer hayoti” gazetasida rasmiy e’lon qilinsin hamda Yangier shahri hokimligining rasmiy veb-saytiga joylashtirilsin.

20. Mazkur qaror bajarilishini nazorat qilish xalq deputatlari shahar Kengashining Mahalliy byudjetni shakllantirish va ijro etish, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish va tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari doimiy komissiyasi raisi R.Botirov zimmasiga yuklatilsin.

Kengash raisi **O.Nosirov**

Xalq deputatlari Yangiyer shahar
Kengashining
2022 yil 30 dekabrdagi
VI-66-213-9-132-K/22-son qaroriga
1-ilova

2023 yil uchun Yangiyer shahar mahalliy byudjeti daromadlarining reja

ko‘rsatkichlari

№	Daromad turi	Summa ming so‘m
1	Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i	6607 749
2	Aylanmadan olinadigan soliq	5341 562
3	Tadbirkorlik faoliyati bilan shug‘ullanuvchi yuridik va jismoniy shaxslardan olinadigan qat’iy belgilangan daromad solig‘i	1052 531
4	Jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig‘i	2331 828
5	Yer osti boyliklaridan foydalanganlik uchun soliq noruda	565 522
6	Jismoniy shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq	2741 810
7	Ijara to’lovlari	136 988
8	Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq	315 199
9	Yuridik shaxslar yer solig‘i	585 528
10	Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq	125 269
	JAMI	**19803 986**
	Mobil aloqaga aksiz solig‘i, alkogolka aksiz solig‘i (shu jumladan piva), tamaki mahsulotlari tushumlaridan tegishli ravishda o‘tkazib beriladigan daromad	7471 710
	Alkogolka aksiz solig‘i (shu jumladan pivo)	3022 690
	Mobil aloqaga aksiz solig‘i	1296 560
	Tamaki mahsulotlari	3152 460
JAMI DAROMADLAR		27275 696

Xalq deputatlari Yangiyer shahar
Kengashining
2022 yil 30 dekabrdagi
VI-66-213-9-132-K/22-son qaroriga
2-ilova

2023 yil uchun shahar maxalliy byudjetining daromadlari va xarajatlari prognozlari

ming so‘mda

Hudud nomi	**Daromad ***	**Xarajat****
JAMI	**26 963 671**	58 431 171
Yangiyer shahri	**26 963 671**	58 431 171

***** Mobil aloqa xizmati va alkogol mahsulotlari, shu jumladan pivo uchun aksiz solig‘i, tamaki mahsulotlari tushumlaridan ajaratiladigan mablag‘larni inobatga olgan holda

Xalq deputatlari Yangiyer shahar Kengashining
2022 yil 30 dekabrdagi
VI-66-213-9-132-K/22-son qaroriga
3-ilova

3 ilova

Yangiyer shahar mahalliy byudjeti mablag‘larini taqsimlovchilarga 2023 yil ajratiladigan xarajatlarning umumiy cheklangan miqdorlari

ming so‘mda

№	Ko‘rsatkichlar	Miqdori
Xarajatlar miqdori, Jami		**58 431 171**
	Shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	**38 861 037**
	Davlat tibbiy sug‘urtasiga jamg‘armalar tarnsfertlar	**0,0**
	Zaxira jamg‘armasi	**514 401**
	Bolala oilalarga va kam ta’minlangan oilalarga ijtimoiy nafaqalar va kompensatsiyalar	**12 579 047**
	Fuqarolar tashabbus jamxarmasi xarajatlari	**6 476 686**
	Mahalliy byudjetlarda hokim yordamchilarining tavsiyalari asosida mahalla infratuzilmasini yaxshilash uchun	**355 270**
1	**Xalq ta’limi bo‘limi**	**5 508 989**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	5 508 989
	Xalq ta’lim bo‘limi Umumta’lim maktablar	930 678
	Barkamol avlod markazi	695 340
	Xalq ta’lim bo‘limi	1 769 103
	Bolalar san’at maktabi	2 113 868
2	**Maktabgacha ta’lim bo‘limi**	**7 442 167**
	shu jumladan:	

	joriy xarajatlar	7 442 167
	Maktabgacha ta’lim tashkilotlari	6 652 900
	Maktabgacha ta’lim bo‘limi	789 268
4	**Davlat sanitariya va epidemoligiya osoyishtilik markazi**	**1 728 913**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	1 728 913
5	**Madaniyat bo‘limi**	**1 371 404**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	1 371 404
	Madaniyat markazlari	645 096
	Madaniyat bo‘limi apparat	184 663
	Bolalar musiqa va san’at maktabi	
	Axborot kutubxona markazi	541 645
6	**Turizm va sport bo‘limi**	**2 538 938**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	2 538 938
7	**Obodonlashtirish boshqarmasi saqlash xarajatlari**	**9 755 822**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	9 755 822
	Daydi itlarni ovlash bo‘limi	122 860,0
	Shaxar ko‘cha yoritkichlari	280 011,0
	Obodonlashtirish boshqarmasi saqlash xarajatlari	6 204 385,0
	Shahar qabristonlari	148 566,0
	Ichki yo‘llarni ta’mirlash xarajatlari	3 000 000,0
8	**Moliya bo‘limi**	**1 018 675**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	1 018 675
	Davlat tibbiy sug‘urta jamg‘armasiga transfertlar	
9	**Veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish bo‘limi**	**903 992**

	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	*903 992*
	Veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish bo‘limi	463 787
	Xayvonlar kasalliklari tashxisi va ozik-ovkat maxsulotlari xavfsizligi davlat markazlari	440 205
10	**Bandlik va mexnat munosabatlari bo‘limi**	**701 472**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	701 472
11	**Shahar hokimligi**	**24 691 287**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	*24 691 287*
	Shahar hokimligi saqlash xarajatlari	2 125 525
	Xokim yordamchilarining saqlash xarajatlari Maxallabay	1 389 496
	Xalq deputatlari Kengashi kotibiyatini saqlash xarajatlari	209 550
	Xalq qabulxonasini saqlash xarajatlari	120 685
	Bolala oilalarga va kam ta’minlangan oilalarga ijtimoiy nafaqalar va kompensatsiyalar	12 579 047
	Mahalliy byudjetlarda hokim yordamchilarining tavsiyalari asosida mahalla infratuzilmasini yaxshilash uchun	355 270
	Zahira jamg‘armasi	514 401
	Fuqarolar tashabbus jamxarmasi xarajatlari (Open byudjet)	6 476 686
	Oila va Xotin qizlar bo‘limi	812 773
	Ijtimoiy ko‘nikma markazlari xarajatlari	88 764
	PQ-299 Ozodlikdan maxrum etish jazosini o‘tab bo‘lgan fuqarolarga dastlabki ijtimoiy yordam	19 090
12	**Yoshlar ishlari agentligi**	**1 252 526**
	joriy xarajatlar	1 252 526
13	**Mahalla va Nuroniylarni qo‘llab-quvvatlash bo‘limi saqlash xarajatlari**	**1 516 986**

	joriy xarajatlar	1 516 986
	shu jumladan:	
	Mahalla va Nuroniylarni qo‘llab-quvvatlash bo‘limi Apparat	369 322
	Fuqarolar O‘zini o‘zi boshqarish orgshanlari saqlash xarajatlari	1 147 664

Xalq deputatlari Yangiyer shahar
Kengashining
2022 yil 30 dekabrdagi
VI-66-213-9-132-K/22-son qaroriga
4-ilova

Shahar mahalliy byudjetiga ajratiladigan tartibga soluvchi byudjetlararo transfertlar 2023 yildagi miqdorlari

ming so‘mda

Shahar va tumanlar	**Tartibga soluvchi transfert miqdori**
JAMI	**31 467 500**
shundan	
Yangiyer shahri	31 467 500

Xalq deputatlari Yangiyer shahar
Kengashining
2022 yil 30 dekabrdagi
VI-66-213-9-132-K/22-son qaroriga
5-ilova

2023 yil uchun mol-mulkni ijaraga beruvchi jismoniy shaxslar uchun belgilangan ijara to‘lovining eng kam stavkalari

№	Ijaraga beriladigan mol-mulk turi	Belgilangan stavka miqdorini tavsiflovchi ko‘rsatkich	Oylik ijara stavkalarining eng kam miqdorlari, so‘mda	
			Guliston shahri	boshqa aholi punktlari
1.	**Uy-joylar:**			
	turar joy	umumiy maydonning 1 kv.metri uchun	10 500	4 500
	noturar joy		20 500	8 300
2.	**Avtomobil transporti:**			
	yengil avtomobil (yo‘lovchilar, bagaj tashishga mo‘ljallangan hamda haydovchi o‘rnini hisoblamaganda, o‘rindiqlari soni 8 tadan ko‘p bo‘lmagan avtotransport vositasi)	1 ta avtotransport vositasi uchun	695 000	
	mikroavtobuslar, avtobuslar va yuk avtomobillari		1375 000	

Izoh: Mazkur stavkalar jismoniy shaxslarning mol-mulkni ijaraga berishdan olingan daromadlariga soliq solish maqsadida qo‘llaniladi.

Xalq deputatlari Yangiyer shahar
Kengashining
2022 yil 30 dekabrdagi
VI-66-213-9-132-K/22-son qaroriga
6-ilova

2023 yil uchun tovarlarning ayrim turlari bilan chakana savdo qilish huquqi uchun undiriladigan yig‘imlarning cheklangan stavkalari

Yig‘imlarning turlari	Bir oyga chegaralangan stavkalar (so‘mda)		
	Guliston shahri	boshqa shaharlar	boshqa aholi punktlari
Alkogolli mahsulotlarni sotish huquqi uchun undiriladigan yig‘im	1200 000	900 000	700 000
Umumiy ovqatlanish korxonalari uchun alkogolli mahsulotlarni sotish huquqi uchun undiriladigan yig‘im	600 000	500 000	350 000

Xalq deputatlari Yangiyer shahar
Kengashining
2022 yil 30 dekabrdagi
VI-66-213-9-132-K/22-son qaroriga
7-ilova

2023 yil uchun avtotransport yig‘imlarinnng stavkalari

T/r	Yig‘imlar va to‘lovlar turlari	Yig‘imlar stavkalari
I	**Chet davlatlar avtotransport vositalarining O‘zbekiston Respublikasi hududiga kirganligi va uning hududi orqali tranziti uchun yig‘imlar**	**AQSH dollarida**
1	O‘zbekiston Respublikasi hududiga chet el davlatlaridan avtotransport vositalari kirganligi va tranziti uchun yig‘im, bitta avtotashuvchi kirganligi uchun stavkalari (2 — 5 bandlarda ko‘rsatilgan mamlakatlar bundan mustasno)	400
2	Tojikiston Respublikasi yuk avtotransport vositalarini O‘zbekiston Respublikasi hududiga olib kirish va tranzit harakatlanganligi uchun yig‘imlar:	
	10 tonnagacha	100
	10 tonnadan 20 tonnagacha	150
	20 tonnadan yuqori	200
3	Qozog‘iston Respublikasi yuk avtotransport vositalarini O‘zbekiston Respublikasi hududiga olib kirish va tranzit harakatlanganligi uchun yig‘im	300
4	Qirg‘iziston Respublikasi yuk avtotransport vositalarini O‘zbekiston Respublikasi hududiga olib kirish va tranzit harakatlanganligi uchun yig‘im	300
5	Turkmaniston Respublikasi yuk avtotransport vositalarini O‘zbekiston Respublikasi hududiga olib kirish va tranzit harakatlanganligi uchun yig‘imlar:	
	10 tonnagacha	50
	10 tonnadan 20 tonnagacha	100
	20 tonnadan yuqori	150
II	**Avtotransport vositalarini sotib olganlik va (yoki) O‘zbekiston Respublikasi hududiga vaqtinchalik olib kirganlik uchun yig‘im**	
1	Yangi hamda foydalanishda bo‘lgan avtotransport vositalari bo‘yicha	xarid qilish narxining 1 foizi

Izoh:

1. O‘zbekiston Respublikasi hududi bo‘ylab xorijiy davlatlarning og‘ir yuk tashuvchi va yirik gabaritli transport vositalari o‘tganligi uchun mazkur ilovada nazarda tutilgan stavkalar bo‘yicha yig‘im to‘lanishi bilan bir qatorda qo‘shimcha ravishda qonunchilikda belgilangan miqdorlarda to‘lov undiriladi.

2. O‘zbekiston Respublikasiga uchinchi mamlakatlardan yuklar olib o‘tishda va O‘zbekiston Respublikasi hududidan yuklarni olib chiqishda Turkmaniston Respublikasi yuk avtotransport vositalaridan qo‘shimcha ravishda 175 AQSH dollari miqdorida yig‘im undiriladi.

3. Gumanitar yuklarni olib o‘tishda avtotransport vositalarining olib kirilishi va tranzitida undiriladigan yig‘imlar stavkasiga nisbatan 0,5 kamaytiruvchi koeffisiyent qo‘llaniladi.

4. Agar O‘zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomasida boshqacha qoidalar belgilangan bo‘lsa, xalqaro shartnoma qoidalari qo‘llaniladi.

Xalq deputatlari Yangiyer shahar Kengashining
2022 yil 30 dekabrdagi
VI-66-213-9-132-K/22-son qaroriga
8-ilova

2023 yil uchun shahar byudjetiga umumdavlat soliqlaridan ajratmalar me’yorlari

(foiz hisobida)

T/R	Shaxar va tumanlar nomi	Jismoniy shaxslardan olinadigan mol-mulk solig‘i	Jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig‘i	Jismoniy shaxslarning mulklarni ijaraga berishidan olinadigan yillik daromadlari bo‘yicha deklarasiyaga asosan hamda yakka tartibdagi tadbirkorlar tomonidan to‘lanadigan daromad solig‘i	Qurilish materiallari bo‘yicha yer qar’ridan foydalanganlik uchun soliq, bunda syement xom ashyosi va syement ishlab chiqarishda foydalaniladigan ohaktosh mustasno	Ijara to‘lovlari	Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq, bunda elektr stansiyalari tomonidan to‘lanadigan soliq mustasno	Aylanmadan olinadigan soliq	Yuridik shaxslardan olinadigan mol-mulk solig‘i	Yuridik shaxslardan olinadigan yer solig‘i	Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i
1	Yangiyer shahri	100	100	100	100	100	100	100	10	10	20

Xalq deputatlari Yangiyer shahar
Kengashining
2022 yil 30 dekabrdagi
VI-66-213-9-132-K/22-son qaroriga
9-ilova

Qishloq xo‘jaligi uchun mo‘ljallanmagan yerlar uchun yuridik shaxslar bo‘yicha 1 gektar uchun mutloq miqdorda belgilangan bazaviy soliq stavkasiga kiritilayotgan kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffisiyentlar

ming so‘mda

T/r	Hudud nomi	Koeffisiyent (0,5 dan 2 gacha)	Yer solig‘i stavkasi 2022 yil uchun (ming.so‘m)
1	T.Malik	1,0	28 800,0
2	Z.Bobur	1,0	28 800,0
3	Fazilat	1,0	28 800,0
4	Shukrona	1,0	28 800,0
5	A.Jomiy	1,0	28 800,0
6	Binokor	1,0	28 800,0
7	Davlatobod	1,0	28 800,0
8	Yuksalish	1,0	28 800,0
9	Shodiyona	1,0	28 800,0
10	Marifat	1,0	28 800,0
11	Navruzabod	1,0	28 800,0

Izox: Shaharlar va tumanlar Kengashlari tomonidan yuridik shaxslar uchun yer solig‘i stavkasini mahalla fuqarolar yig‘inlari kesimida tuman (shahar) markazlari uzoq-yaqinligiga qarab, 0,7-3,0 kamaytiruvchi va ko‘paytiruvchi koeffisentlarni belgilash huquqiga ega.

Xalq deputatlari Yangiyer shahar
Kengashining
2022 yil 30 dekabrdagi
VI-66-213-9-132-K/22-son qaroriga
10-ilova

Jismoniy shaxslar bo‘yicha (dehqon xo‘jaligini yuritish uchun berilgan qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallagan yerlardan tashqari) mutloq miqdorda 1 kv.m. uchun belgilangan bazaviy soliq stavkalariga nisbatan kiritilayotgan kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffisiyentlar

so‘mda

T/r	Hudud nomi	Koeffisiyent (0,5 dan 2 gacha)	Yer solig‘i stavkasi 2022 yil uchun
1	T.Malik	1,00	226,0
2	Z.Bobur	1,00	226,0
3	Fazilat	1,00	226,0
4	Shukrona	1,00	226,0
5	A.Jomiy	1,00	226,0
6	Binokor	1,00	226,0
7	Davlatobod	1,00	226,0
8	Yuksalish	1,00	226,0
9	Shodiyona	1,00	226,0
10	Marifat	1,00	226,0
11	Navruzabod	1,00	226,0

Izox: Shaharlar va tumanlar Kengashlari tomonidan jismoniy shaxslar uchun yer solig‘i stavkasini mahalla fuqarolar yig‘inlari kesimida tuman (shahar) markazlari uzoq-yaqinligiga qarab, 0,7-3,0 kamaytiruvchi va ko‘paytiruvchi koeffisentlarni belgilash huquqiga ega.